

O'ZBEKISTONDA NFT-SAN'ATNI LEGITIMATSİYA QILISH IMKONIYATLARI



Umarxon Sobitovich Muxamedov

Ijtimoiy fanlar va informatika kafedrasi katta o'qituvchisi
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Sayyora Abdulkakovna Zakirova

Ijtimoiy fanlar va informatika kafedrasi mudiri, t.f.n
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Umida G'ulomovna Zunnunova

Ijtimoiy fanlar va informatika kafedrasi professori
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-03-09>

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida san'at an'anaviy shakldan raqamli formatga o'tib, NFT vositasida kolleksionerlik, mualliflik huquqlari va san'at asarlarining qiymati yangi mezonlarga ega bo'lmoqda. Maqolada NFT san'atining legitimatsiya qilinishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, iqtisodiy va texnologik mexanizmlar tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida NFT bozorini shakllantirish, milliy raqamli san'at platformalarini yaratish, blokcheyn infratuzilmasini rivojlantirish va NFT'ni ommalashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, NFT, ramziy-axborot shakli, blokcheyn, legitimatsiya, NFT tranzaktsiyalari.

Аннотация: В результате развития цифровых технологий искусство перешло от традиционных форм к цифровым форматам, а благодаря NFT коллекционирование, авторское право и ценность произведений искусства приобретают новые измерения. В статье анализируются правовые, экономические и технологические механизмы, необходимые для легитимации искусства NFT. Даны рекомендации по формированию рынка NFT в Узбекистане, созданию национальных платформ цифрового искусства, развитию инфраструктуры блокчайна, популяризации NFT.

Ключевые слова: цифровые технологии, NFT, символически-информационная форма, блокчейн, легитимация, NFT-транзакции.

Abstract: As a result of the development of digital technologies, art has moved from traditional forms to digital formats, and thanks to NFT, collecting, copyright and the value of works of art are acquiring new dimensions. The article analyzes the legal, economic and technological mechanisms necessary for the legitimization of NFT art. Recommendations are given for the formation of the NFT market in Uzbekistan, the creation of national digital art platforms, the development of blockchain infrastructure, and the popularization of NFT.

Keywords: digital technologies, NFT, symbolic-informational form, blockchain, legitimization, NFT transactions.

Kompyuter texnologiyalarining taraqqiy etishi natijasida san'at asta-sekin o'zining an'anaviy jismoniy ko'rinishini yo'qotib, raqamli formatga o'ta boshladi. Bu jarayonning muhim bosqichlaridan biri sifatida 1989-yilni qayd etish mumkin. Aynan shu yilda Adobe kompaniyasi tomonidan raster va vektor grafikalar yaratish uchun mo'ljallangan professional dasturlar – Photoshop va Illustrator keng ommaga taqdim etildi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi kompyuter grafikasi va poligrafiyaning uyg'unlashuvi an'anaviy rassomlik texnikalarini asta-sekin siqib chiqara boshladi. Dastlab ushbu tendensiya illyustratsiya va dizayn sohalarida sezilarli bo'ldi, biroq raqamli san'at uzoq vaqt davomida tasviriy san'atning yuqori iyerarxiyasiga ega yo'nalishlari qatoriga kirmadi. Ommaviy

iste'mol madaniyati mahsulotlari (pop-art) doirasida qabul qilingan bu san'at turi an'anaviy texnikalar bilan yaratilgan asarlar bilan solishtirganda pastroq mavqega ega edi.

Bu holatning asosiy sababi san'at bozorida asarlarning noyobligi va betakrorligi yuqori baholanishi bilan bog'liq edi. Masalan, "Mona Liza" yagona nusxaga ega bo'lib, hatto Leonardo da Vinci ham aynan shunday takroriy asar yaratishi imkonsiz edi. Biroq, raqamli san'atning tabiatи shundayki, u cheksiz miqdorda bir xil nusxalarda ko'paytirilishi mumkin. Natijada, raqamli asarlar moddiy san'at asarlari bilan solishtirganda bozorda pastroq qiymatga ega bo'lib keldi.

Hatto 2021-yilgacha ham raqamli san'at eng nufuzli san'at savdo platformalari, jumladan auktsion uylari uchun ahamiyatlari obyekt sifatida qaralmagan. Biroq, 2021-yil fevral oyida ushbu yondashuv keskin o'zgardi. Yevropaning eng qadimiy auktsion uylaridan biri bo'lgan Christie's NFT texnologiyasi asosida yaratilgan Beeple (Mayk Vinkelman) tomonidan chizilgan "Har kuni: dastlabki 5000 kun" (Everydays: The First 5000 Days) nomli raqamli kollajni savdoga qo'ydi. Ushbu asarning boshlang'ich bahosi atigi 100 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa-da, yakuniy natijada 69,34 million dollarga sotildi. Shu tariqa, Beeple hayotligida eng qimmatbaho rassomlar qatoriga uchinchi o'rinda qayd etildi.

BBC san'at bo'limi muharirri Uill Gomperts bu voqeani yoki NFT bozorining spekuliyativ davri oldidan sodir bo'lgan so'nggi yirik savdo, yoki butunlay yangi san'at davrining boshlanishi sifatida tarixga kirishi mumkinligini ta'kidlagan.

Beeple tomonidan yaratilgan "Har kuni: dastlabki 5000 kun" asarining san'at kolleksionerlari uchun noyob va qimmatbaho aktiv sifatida qabul qilinishiga sabab nima edi? Bu holat bevosita NFT (Non-Fungible Token) texnologiyasining san'at sohasida qo'llanilishi bilan bog'liq.

Aslida, blokcheyn texnologiyasi dastlab 2009-yilda kriptovalyutalar uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning san'at sohasidagi roli keyinchalik shakllana boshladi. NFT texnologiyasining mohiyati quyidagicha:

- Raqamli obyektlar maxsus platformalarda NFT tokenlariga aylantiriladi.
- Ushbu platformalar nafaqat ijodiy maydon, balki savdo markazi vazifasini ham bajaradi.
- Eng mashhur NFT platformalar: Rarible, Mintable, OpenSea.
- NFT yaratish uchun Ethereum blokcheyn tizimida maxsus hamyon va raqamli fayl kerak bo'ladi.
- NFT-token ma'lumotlar bazasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: asarning o'zi, tavsifi, yaratilish tarixi va mualliflik huquqlari.

NFT texnologiyasi tufayli har bir raqamli asarning "raqamli imzosi" mavjud bo'lib, u mualliflik huquqlarini ta'minlaydi va asarning soxtalashtirilishining oldini oladi. Shuningdek, NFT san'atga egalik qilishning yangi shaklini yaratib, raqamli san'atni kolleksionerlar uchun jozibador aktivga aylantirdi. Shu sababli, NFT san'at bozorida yangi tendensiyalarni shakllantirib, san'atning an'anaviy va raqamli shakllari o'rtasidagi chegara tobora yo'qolib bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotning moddiy shakldan ramziy-axborot shakliga o'tishi, ya'ni dematerializatsiyasi, art bozorga ham ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy san'at bozori artefaktlar bilan ishlashga asoslangan bo'lsa, hozirda u axborot san'ati bozoriga aylanmoqda.

Bu jarayonning eng yorqin dalillaridan biri – kriptosan'at yoki NFT-san'atining paydo bo'lishidir. NFT san'ati moddiy shaklga ega bo'lмаган raqamli asarlarga "egalilik" sertifikatini taqdim etadi. Biroq, bu sertifikatning o'zi ham simulyakr, ya'ni asl nusxasi mavjud bo'lмаган nusxadir.

Hozircha mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlar ushbu yangi haqiqatga moslashishga ulgurmagan bo'lsa ham, san'at bozori NFT savdolarini faol ravishda amalga oshirmoqda.

Buning yorqin misoli – 2021-yil fevral oyida Yevropaning eng qadimgi auksion uylari "Christie's" tomonidan raqamli rassom Mayk Vinkelman (Beeple) yaratgan "Har kuni: Dastlabki 5000 kun" asarining 69,34 million dollarga sotilganligidir.

BBC san'at bo'limi muharriri va zamonaviy san'at bo'yicha bestseller muallifi Uill Gomperts ushbu hodisa tarixga NFT spekulyativ pufagi qulashidan oldingi voqeа sifatida yoki aksincha, yangi san'at turi tarixi boshlangan lahma sifatida kirishini taxmin qilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib aytganda, zamonaviy art bozorning asosiy xususiyati – savdo obyektlarining dematerializatsiyasi ekanligini ta'kidlash mumkin. An'anaviy iqtisodiyot uchun xos bo'lган kategoriyalar, tushunchalar va qonuniyatlar ijodiy sanoat sektorida aksariyat hollarda o'z samarasini yo'qotadi. Chunki bu soha intelektual va ijodiy faoliyatga asoslangan resurs bazasi bilan bog'liq.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi galereyalari, masalan, White Cube yoki Gagosian Gallery, hali ham kripto-sanatga nisbatan ehtiyojkorona yondashmoqda. Biroq, Yevropada allaqachon aynan shu san'at turiga ixtisoslashgan yosh galereyalar jismoniy ko'rgazma maydonlari bilan faoliyat yuritmoqda. Shunday bo'lsada, kripto-asarlar savdosi asosan virtual makonda, ya'ni NFT-marketpleyslarda amalga oshirilmoqda.

Art-bozor subyektlarining iyerarxiyasidagi keyingi pog'ona – bu auksionlardir. Galereyaning qulay va nazorat qilinadigan muhitidan farqli o'laroq aynan shu yerda muallif va uning asari "yovvoyi" bozor sharoitida sinovdan o'tadi. Qandaydir tarzda kripto-san'at dunyo miqyosidagi yirik galereyalarni chetlab o'tishga muvaffaq bo'ldi. Ammo bundan ham muhimrog'i shundaki, art-bozor iyerarxiyasida yuqori o'rinda turuvchi institutsiya – "Sotheby's" va "Christie's" auksionlari nafaqat ekspert, balki deklarativ funktsiyani ham o'z zimmasiga oldi. Ular yangi san'at turini muvaffaqiyatlari sinovdan o'tkazib, yangi me'yorni e'lon qildilar.

Bu holat NFT-san'atining jamiyatdagi mavqeini tubdan o'zgartirdi: avval postmodernistik eksperiment sifatida qaralgan bo'lsa, endilikda u odatiy badiiy amaliyotining bir qismiga aylandi.

Auksionlardan tashqari, muzeylar ham yangi san'at turiga e'tibor qaratmoqda. Rossiyaning Davlat Ermitaji "Sizning tokeningiz Ermitajda saqlanadi" loyihasi doirasida o'z kolleksiyasidagi jahon san'ati durdonalarining raqamli nuxsalaridan iborat cheklangan NFT ishlarini chiqardi. Ular orasida Leonardo da Vinchi, Jorjone, Vinsent van Gog va Klod Mone asarlarining raqamli nuxsalarini mavjud. Ushbu nuxsalar Ermitaj direktori tomonidan imzolangan bo'lib, bu ularning noyobligini ta'minlaydi. NFT asarlarining savdosidan tushgan barcha mablag' muzeyga yo'naltiriladi.

Ermitaj direktori M.Piotrovskiy NFT-loyihalarining mohiyatini: "Ermitaj – konservativ innovator. Biz eng so'nggi texnologiyalardan foydalanamiz, jumladan, 'Sizning tokeningiz Ermitajda saqlanadi' loyihasi va NFT bilan olib borayotgan ishlarimiz bunga misol. Biz Ermitaj kolleksiysi, uning zallari va binolari bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirmoqdamiz. Bu bir tomonidan muzeyning demokratikligini, boshqa tomonidan esa uning hashamatidan foydalanish imkoniyatining ochiqligini ta'kidlaydi. Ermitajning bu boradagi qiziqishi moliyaviy emas, balki san'atshunoslik va kolleksionerlik xususiyatiga ega. Maqsad – san'at ixlosmandlari yangi NFT-formatni qanday qabul qilishlarini kuzatishdir. NFT – bu falsafa, mulkka egalik estetikasidir. San'at asarlarining raqamli nuxsalarini internetda keng tarqalgan, ularning barchaga ochiqligi bor. Ammo NFT – bu mulkka egalik hissi, bizning holatda esa Buyuk muzeyga daxidorlik hissidir." deb ta'riflaydi.

NFT (non-fungible token) san'ati zamonaviy texnologiyalar va raqamli aktivlar rivojlanishi bilan yangi bosqichga chiqmoqda. O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishni qonuniylashtirish va ommalashtirish uchun turli huquqiy, iqtisodiy va texnologik mexanizmlar ishlab chiqilishi talab etiladi. Quyida NFT-san'atni legitimatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

1. Huquqiy va tartibga solish mexanizmlarini yaratish

NFT va kriptoaktivlar hali ham xalqaro miqyosda tartibga solish jarayonidan o'tmoqda. O'zbekistonda esa kriptoaktivlar va blokcheyn texnologiyalariga oid dastlabki huquqiy asoslar yaratilgan bo'lsa-da, NFT va raqamli san'atga tegishli aniq qonuniy me'yorlar hali yetarlicha shakllanmagan.

2. NFT asosida milliy art bozorni shakllantirish

NFT ijodkorlar uchun xalqaro bozorda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Blokcheyn infratuzilmasini rivojlantirish

NFT tranzaktsiyalari blokcheyn texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda IT-sektor rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, milliy NFT platformalar mavjud emas.

4. NFT-san'atni targ'ib qilish va ta'lim dasturlarini shakllantirish

NFT san'ati keng auditoriya tomonidan hali to'liq anglab yetilmagan.

5. NFT bozorining iqtisodiy imkoniyatlari

NFT bozori san'at, madaniyat va turizm sohalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Quyidagi imkoniyatlardan iqtisodiy jihatdan NFT bozorining o'sishiga xizmat qiladi:

- Mahalliy rassomlar o'z asarlarini NFT orqali xalqaro darajada sotish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilishi mumkin.

- Muzeylar va galereyalar raqamli san'at kolleksiyalarini NFT sifatida sotib olish orqali yangi daromad manbalariga ega bo'lishi mumkin.

- Turizm sektori NFT orqali virtual muzeylar va madaniy obidalarni raqamli formatda targ'ib qilishi mumkin.

Xulosa. O'zbekistonda NFT-san'atni legitimatsiya qilish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash, milliy NFT-marketpleysi yaratish, NFT-loyihalarni targ'ib qilish, blokcheyn infratuzilmasini rivojlantirish va jamiyatni bu yo'nalishga tayyorlash zarur. Agar ushbu bosqichlar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, O'zbekiston Markaziy Osiyoda NFT bo'yicha ilg'or davlatlardan biriga aylanishi mumkin.

Ehtimol, hozircha NFT san'ati O'zbekistonda ommalashmagan, ammo kelasi yillarda bu soha an'anaviy san'at bozori bilan yonma-yon rivojlanishi mumkin. NFT nafaqat molivaviy imkoniyat, balki madaniy merosni yangi avlodga yetkazish vositasi ham bo'lishi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan, balki, Registon maydonining raqamli versiyasi yoki Amir Temur haykali NFT shaklida sotilishi mumkin. Bir narsa aniq: O'zbekiston san'at olamida yangi davr eshigini ochmoqda. Va bu eshik orqasida cheksiz imkoniyatlardan bo'lishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Zakirova, S. A., & Zunnunova, U. G. (2021). Classification Of Creative Industries In Uzbekistan. Nveo-natural volatiles & essential oils journal| nveo, 15296-15302.
2. Mukhamedov, U. S. (2021). Trends In The Emergence And Development Of Styles In Web Design. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(10), 21-24.
3. Zakirova S. (2023). Important Features Of The Culture Of Using Audiovisual Technologies. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies
4. Ambroise Vollard approach to Important Artworks [Электрон ресурс]. – <https://www.theartstory.org/influencer/vollard- ambroise/artworks/>
5. Christies [Электрон ресурс]. –<https://onlineonly.christies.com/s/first-open-beeple/beeple-b-1981-1/112924>
6. Collecting the new. Museums and contemporary art / ed. by Bruce Altshuler. – Princeton ; Oxford : Princeton university press, 2015. – 195 p.
7. Маркина, Т. Эрмитаж продал пять NFT-шедевров из своей коллекции [Электрон ресурс] <https://www.theartnewspaper.ru/posts/20210907-1>